



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA HIKOYALARDAN FOYDALANISH

**Bosimova Mahliyo Dilshod qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 3-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Qobilova Kamola Azamat qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirishda hikoyalardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Unda hikoyalarning bolaning ma'naviy dunyosini boyitish, ijobjiy fazilatlarni singdirish va axloqiy tushunchalarni shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, hikoya orqali o'rgatish usullari bayon etilgan. Maqolada pedagogik tajribalar va amaliy tavsiyalar asosida hikoyalarni dars jarayonida va sinfdan tashqari faoliyatda samarali qo'llash yo'llari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, yosh bolalarga axloqiy tushunchalarni tushunarli, obrazli va hayotiy misollar orqali yetkazish, aynan hikoyalarni vositasida yanada samarali amalgalashiriladi.

**Abstract:** This article highlights the importance of using stories in shaping the moral education of primary school students. It analyzes the role of stories in enriching the child's spiritual world, instilling positive qualities, and forming moral concepts. It also describes methods for teaching students such qualities as honesty, kindness, hard work, friendship, and patience through stories. The article shows ways to effectively use stories in the classroom and in extracurricular activities based on pedagogical experiences and practical recommendations. The results of the study show that conveying moral concepts to young children through understandable, figurative, and real-life examples is most effectively achieved through stories.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, ta'lif, tarbiya, hikoya, axloqiy tarbiya, o'qituvchi

**Keywords:** primary school, education, upbringing, story, moral education, teacher

Hozirgi zamonda nafaqat bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, balki har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashga ham qaratilgan. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lif bosqichida beriladigan axloqiy tarbiya kelajak avlodning insoniy fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaraganda, hikoyalarni bolalarning ongiga tez ta'sir etuvchi, ularning xulq-atvorini shakllantiruvchi, yaxshi va yomonni farqlashga o'rgatuvchi kuchli vosita hisoblanadi. Axloqiy tarbiya – bu o'quvchilarni jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yor va qadriyatlarga asoslanib yashashga, odobli, vijdonli, halol va mehr-oqibatli bo'lib ulg'ayishga o'rgatish jarayonidir. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar ongingin shakllanishida bu davrda berilgan axloqiy





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



tarbiya o‘ziga xos iz qoldiradi. Shu sababli ularning qalbida insoniylik, halollik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik kabi fazilatlarni shakllantirish lozim.

Hikoya — o‘zida biror voqeа, hayotiy holat yoki insoniy xatti-harakatni mujassam etgan kichik epik janr hisoblanadi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilar: Hayotiylik: Hikoyalarda hayotiy voqealar tasvirlanadi, bu esa bolalarning ongiga oson singadi. Yana biri qahramonlar orqali ta’sir qilish: Hikoyadagi ijobjiy yoki salbiy qahramonlar bolaga bevosita namuna bo‘ladi. Axloqiy saboq berish: Har bir hikoya o‘ziga xos axloqiy xulosani o‘z ichiga oladi. Hikoyalalar orqali axloqiy tarbiyani shakllantirishning afzallikkleri ham albatta mavjuddir jumladan:

-Qiziqarli shaklda o‘rgatish- hikoya bolaga zerikarsiz tarzda saboq beradi.

-Fikr yuritish va tahlil qilishni rivojlantirish- o“quvchi o‘qiganidan so‘ng o‘z fikrini bildiradi.

-Empatiya tuyg‘usini shakllantirish- qahramon holatiga kirib, rahm-shafqat, mehr-oqibat his qiladi.

-Axloqiy qadriyatlar singdirish-rostgo‘ylik, adolat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar hikoyalalar orqali beriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (7–10 yosh) hali hayotiy tajribaga ega emaslar. Shu sababli ularga: Soddaligi bilan tushunarli bo‘lgan; Hayotiy, real voqealarga asoslangan; Ijobiy xulq-atvorni targ‘ib qiluvchi; Mantiqiy yakuni bor hikoyalalar tanlash lozim. Misollar keltiradigan bo‘lsak: “Mehribon qushcha” (mehr-shafqat haqida), “Halol bola” (rostgo‘ylik haqida), “Mehnatkash o‘quvchi” (mehnatning natijasi haqida) kabi hikoyalalar shular jumlasidandir. Dars jarayonida hikoyalardan foydalanish metodikasi eng asosiy rol o‘ynaydi. Birinchi navbatda hikoya tanlash kerak. Tarbiya mavzusiga mos, sinf darajasiga to‘g‘ri keluvchi hikoya tanlanadi. Ikkinchidan, o‘qish va tinglashni o‘rgatamiz. O‘qituvchi hikoyani ifodali o‘qiydi yoki o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitadi. Va nihoyat ularga tahlil qilish o‘rgatiladi va savollarga javob berishadi. Qahramonlar kim? Ular qanday xatti-harakat qildi? Nega u ish to‘g‘ri/yoki noto‘g‘ri edi? Siz qaysi qahramonga o‘xshamoqchisiz? Nega? Tahlil jarayoni yakunlangach hikoyadan xulosa chiqarishadi. O‘quvchilar bilan birgalikda axloqiy saboq ajratib olinadi. Undan keyin esa ijodiy topshiriqlar beramiz. O‘quvchilar hikoya asosida rasm chizadilar. O‘z hayotlaridan shunga o‘xhash voqeani aytib beradilar. Hikoyaning davomini yozadilar. Va yana amaliy tajriba va kuzatuvlar ham olib boramiz. Ba’zi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan olib borilgan amaliy kuzatuvlarda aniqlanishicha, muntazam ravishda hikoyaviy matnlar bilan ishlagan o‘quvchilarda: o‘z fikrini erkin ifoda etish qobiliyati; yomon va yaxshi xatti-harakatlarni ajratish ko‘nikmasi; ijtimoiy faollik va insonparvarlik hissi yuqori bo‘lgan.. Hikoyalardan foydalanishda e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihatlarga alohuda e’tibor qaratishimiz lozim. Har bir hikoya tarbiyaviy maqsadga xizmat qilishi kerak; Hikoyadagi xulq-atvorlar o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga mos tushishi kerak; Qahramonlar aniq, yorqin bo‘lishi lozim; O‘quvchi unda o‘zini ko‘rishi, baho berishga harakat qilishi lozim.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Boshlang‘ich sinfda axloqiy tarbiyani shakllantirish jarayonida hikoyalar samarali vosita bo‘la oladi. Ular orqali bolalar insoniylik, adolat, mehr, rostgo‘ylik kabi fazilatlarni o‘zlashtiradilar. O‘qituvchi esa har bir hikoyadan foydalanishda nafaqat uni o‘qitadi, balki undagi axloqiy saboqni ongli tarzda bolaga singdirish choralarini ko‘rishi lozim.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. G‘afurov, N. “Axloqiy tarbiya nazariyasi”, Toshkent, 2018.
2. Hasanboyeva, M. “Boshlang‘ich sinfda badiiy matnlar bilan ishlash”, Samarqand, 2020.
3. Karimova, Z. “O‘quvchilar axloqiy tarbiyasida ertak va hikoyalarning o‘rni”, Ma’rifat gazetasi, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Boshlang‘ich sinf Ona tili darsliklari”, 1–4 sinf.
5. Vygotskiy, L.S. “Psixologiya va pedagogika”, Moskva, 2000.

B

